Rasulov Sultonnazir (Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi «Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi» kafedrasi o'qituvchisi; E-mail: sultonnazirrasulov@gmail.com)

BOLALARNI KITOBXON SIFATIDA TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: KUTUBXONA, OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarni kitobxon sifatida tarbiyalashning pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy axborot muhitida bolalarda muntazam o'qish odatini shakllantirish murakkablashib borayotganligi bilan belgilanadi. Adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish va kutubxona amaliyotini umumlashtirish metodlari qo'llanilib, oila, maktab va kutubxonaning muvofiqlashtirilgan hamkorligi orqali bolalar kitobxonligini shakllantirish mexanizmi tavsiflangan. Natijalar maktab va bolalar kutubxonalari amaliyotida bevosita qo'llanilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *bolalar kitobxonligi, kitobxonlik madaniyati, oila-maktab-kutubxona hamkorligi, yosh xususiyatlari, o'qishga rahbarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik yondashuv.*

ОСОБЕННОСТИ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ КАК ЧИТАТЕЛЕЙ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ БИБЛИОТЕКИ, СЕМЬИ И ШКОЛЫ

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогические и психологические аспекты воспитания детей как читателей. Актуальность определяется усложнением формирования устойчивой читательской привычки в условиях современной информационной среды. Применены методы сравнительного анализа литературы и обобщения библиотечной практики; описан механизм скоординированного взаимодействия семьи, школы и библиотеки. Результаты применимы в практической деятельности педагогов и библиотекарей.*

Ключевые слова: *детское чтение, читательская культура, взаимодействие семьи–школы–библиотеки, возрастные особенности, руководство чтением, духовно-нравственное воспитание, педагогический подход.*

SPECIFIC FEATURES OF RAISING CHILDREN AS READERS: LIBRARY, FAMILY AND SCHOOL COOPERATION

Annotation. *This article analyses the pedagogical and psychological aspects of raising children as active readers. The relevance is determined by the growing difficulty of cultivating regular reading habits in today's digital environment. Comparative literature analysis and generalisation of library practice are employed; a step-by-step cooperation mechanism between the family, school, and library is described. The findings are directly applicable to the work of teachers and librarians.*

Keywords: *children's reading, reading culture, family–school–library cooperation, age-specific features, reading guidance, moral upbringing, pedagogical approach.*

1. Kirish (Introduction). Kitob insoniyatning ma'naviy xazinasi bo'lib, millat tafakkurini shakllantirish va qadriyatlarni avloddan avlodga uzatishning eng ishonchli vositasi hisoblanadi. Aynan shu maqsad uchun kitobxonlik madaniyatini erta bolalikdan tizimli shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy raqamli muhitda bolalarda o'qish odatini shakllantirish tobora murakkablashmoqda: ijtimoiy tarmoqlar va multimedia o'yinlarining kuchli raqobati sharoitida bola kitobga bo'lgan qiziqishini yo'qotishi xavfi ortib bormoqda. Shu bois bolalarni kitobxon sifatida tarbiyalashning pedagogik asoslarini qayta o'rganish va samarali usullarni aniqlash bugungi pedagogikaning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi: oila, maktab va kutubxona hamkorligining pedagogik asoslarini, yosh xususiyatlariga mos yondashuvlarni tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot obyekti – 7–14 yoshli maktab o'quvchilari, predmeti – ushbu institutlar orqali bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish shakllari va prinsiplari.

2. Adabiyotlar tahlili (Literature review). E.Yo'ldoshevning «Kutubxona va yosh kitobxon» (2003) va «Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish» (2002) asarlari O'zbekistonda ushbu sohaning asosiy ilmiy manbasini tashkil etib, kutubxonachining individual yondashuvi va shaxsiy ta'sirining hal qiluvchi rolini asoslab bergan [3;4-b.]. Islomov va Yo'ldoshev (1992) esa maktab kutubxonasi va ta'lim jarayoni o'rtasidagi uzviy aloqani batafsil tavsiflagan [2;78-b.].

Krashen (2004) «erkin ixtiyoriy o'qish» nazariyasida bolaning o'z qiziqishiga ko'ra kitob tanlay olishi o'quv samaradorligini sezilarli oshirishini isbotlagan [5;47-b.]. G'aniyeva (2009) esa maktab kutubxonasini nafaqat kitob saqlash joyi, balki intellektual va axborot savodxonligini oshiruvchi to'laqonli ta'lim maydoni sifatida kontseptuallashtirishda muhim hissa qo'shgan [10;38-b.].

Mavjud adabiyotlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, oila, maktab va kutubxona hamkorligining tizimli muvofiqlashtirilgan modeli hali yetarlicha ishlab chiqilmagan – bu tadqiqotning toʻldirishi lozim boʻlgan asosiy ilmiy boʻsh joy hisoblanadi.

3. Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Tadqiqot sifatiy metodologiya asosida qurilgan: (1) 11 ta asosiy ilmiy manbaga tizimli sharh; (2) xorijiy va mahalliy yondashuvlarni qiyosiy tahlil; (3) Xorazm viloyati maktab kutubxonalari amaliyotini pedagogik kuzatish; (4) oʻqituvchilar va kutubxonachilar tajribasini umumlashtirish. Tahlil uchta yoʻnalish boʻyicha olib borildi: yosh xususiyatlariga mos kitobxon rivojlanish bosqichlarini tavsiflash; «kitob – kitobxon – kutubxona» tizimidagi mexanizmni tahlil qilish; «oila – maktab – kutubxona» hamkorlik modelini aniqlash va tizimlash.

4. Tahlil va natijalar (Analysis and results). 4.1. Yosh bosqichlari va kitobxon rivojlanishi.

Ilmiy tekshirishlar bolalar kitobxon sifatida shakllanishining toʻrtta bosqichini aniqlagan [3;28-b.]. (1). Bolalik davri (7–9 yosh) – oʻqish texnikasi shakllanib boradi, bolalar voqealar va qahramonlarni eslab qoladi; pedagog ovoz chiqarib oʻqib bersa samarali. Kitoblar rasmlarga boy va tili sodda boʻlishi lozim. (2) Oʻtish davri (10–11 yosh) – mustaqil tahlil qobiliyati paydo boʻladi; oʻqiganni soʻzlab berish va muhokama muhim (3). Yoshlik davri (12–13 yosh) – mustaqil kitob tanlash va adabiy til goʻzalligini his etish kuchayadi; milliy va jahon adabiyoti namunalari tavsiya etiladi (4). Oʻsmirlik bosqichi (14 yosh)–tanqidiy fikrlash rivojlanadi, muallif niyatini anglashga intiladi.

Har bir bosqichda adabiyot tanlash pedagogning eng masʼuliyatli vazifasi boʻlib, yoshi va darajasiga mos boʻlmagan kitob bolada oʻqishdan nafrat uygʻotishi, aksincha toʻgʻri tanlangan kitob esa umrbod kitobxonlik muhabbatini shakllantirishi mumkin.

4.2. «Kitob – Kitobxon – Kutubxona» tizimi. Bolalar oʻqishiga rahbarlik qilish uchta oʻzaro bogʻliq zveno: kitob – kitobxon – kutubxonadan iborat tizim orqali amalga oshiriladi [4;12-b.]. Kutubxona bu tizimda faol pedagogik markaz sifatida toʻrtta asosiy vazifani bajaradi: maktab va oila bilan umumiy tarbiyaviy maqsadda birlashish; bolada kitobga qiziqishni uygʻotish; mustaqil kitob tanlash va tanqidiy baholashga oʻrgatish; eng yaxshi kitoblarni tavsiya etish orqali har tomonlama rivojlanishga koʻmaklashish [4;19-b.]. Bugungi kunda kutubxonalar anʼanaviy usullar bilan bir qatorda multimedia, animatsiya va internet resurslaridan foydalanib oʻqishga qiziqishni kuchaytirishlari zarur [1;5-b.].

4.3. «Oila – Maktab – Kutubxona» hamkorlik modeli. Bolani kitobxon sifatida tarbiyalashning eng samarali jarayoni «oila – maktab – kutubxona» uchburchagi orqali amalga oshiriladi. Oilada ota-onaning kitob oʻqishi va bolaga ovozli oʻqib berishi dastlabki qiziqishni uygʻotadi. Maktabda bola oʻqish texnikasini egallaydi, darsliklar va muhokamalar orqali tahlil qilishni oʻrganadi. Kutubxonada esa kitobxon sifatida shakllanish yakunlanadi: kutubxonachi bola bilan individual suhbat olib borib, olgan kitobini qanday oʻqiganini, qayeri yoqqanini bilib oladi va uning talabiga mos maslahat beradi [3;54-b.]. Ushbu uch institutning muvofiqlashtirilgan hamkorligisiz, ular oʻrtasida izchil muloqot va umumiy reja boʻlmasdan, tarbiyaviy taʼsir sezilarli darajada pasayadi.

Oʻqishga rahbarlik qilishda uchta prinsiplar guruhiga tayaniladi [4;19-b.]: (1) metodologik prinsiplar – ilmiy asosda kitob tavsiyasi, differensial yondashuv; (2) psixofiziologik prinsiplar – bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; (3) anʼanaviy pedagogik prinsiplar – koʻrgazmalilik, qiziqarlilik, bolaning tashabbusi va mustaqilligiga tayanish. Bu prinsiplarning birgalikda qoʻllanilishi kutubxonaning tarbiyaviy taʼsirini sezilarli oshiradi.

5. Xulosa va takliflar (Conclusion/recommendations). Tadqiqot natijalari bolalarni kitobxon sifatida tarbiyalash oila, maktab, kutubxonaning birgalikdagi va muvofiqlashtirilgan harakati natijasidir, degan xulosani tasdiqladi. Differensial yondashuv, kutubxonaning faol pedagogik markaz sifatidagi roli va «oila – maktab – kutubxona» modelining izchil ishlashi – uchta asosiy shart boʻlib, ulardan biri yetishmaydigan boʻlsa, jarayon samaradorligi pasayadi.

Amaliy tavsiyalar: (1) oila – uy kutubxonachasi, oilaviy oʻqish odatini yoʻlga qoʻyish; maktab va kutubxona ota-onalar uchun qoʻshma seminarlar tashkil etishi; (2) maktab–sinfdan tashqari oʻqish dasturini kutubxona bilan muvofiqlashtirib olib borish, yillik umumiy oʻqish rejasi tuzish; (3) kutubxona – har bir kitobxon bilan individual suhbat va oʻqish kartasini yuritish, multimedia resurslardan foydalanish, adabiy kechalar va kitobxonlar bellashuvini muntazam oʻtkazish; (4) tizimli darajada – uchala institution oʻrtasida yillik hamkorlik rejasi va oʻzaro hisobot mexanizmini joriy etish.

Kelgusidagi tadqiqotlar oilaviy oʻqish muhiti va bolaning oʻquv koʻrsatkichlari orasidagi empirik bogʻliqlikni, raqamli va bosma oʻqishning birgalikdagi samaradorligini, hamda zamonaviy kutubxonalarni axborot-resurs markaziga aylantirish modellarini oʻrganishga yoʻnaltirilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

[1]. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish (hujjatlar to‘plami). Toshkent, A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007”.

[2]. Islomov E., Yo‘ldoshev E. Maktab kutubxonasi ishini tashkil etish. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992, 124-bet.

[3]. Yo‘ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. Toshkent, 2003, 96-bet.

[4]. Yo‘ldoshev E. Kutubxonada bolalar o‘qishiga rahbarlik qilish. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2002, 112-bet.

[5]. Krashen S. The Power of Reading: Insights from the Research. Portsmouth: Heinemann, 2004, 199 p.

[6]. Sulzby E., Teale W. Emergent Literacy. Handbook of Reading Research. Vol. II. New York, Longman, 1991, p. 727–757.

[7]. G‘aniyeva D. Ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot-resurs markazlarining roli. Toshkent, Milliy kutubxona nashriyoti, 2009, 88-bet.

[8]. O‘zbekiston Respublikasi Kutubxona Assotsiatsiyasi. Bolalar kutubxonalarida tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha amaliy qo‘llanma. Toshkent, 2020.

[9]. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni (yangi tahriri). Toshkent, 2020.

Xabibullaeva Guljaxan Kengesbaevna (Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti)

CHET TILLARINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari, uning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda asosiy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, “yondashuv” tushunchasining metodik talqini, kommunikativ yondashuvning ilmiy asoslari va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim standartlari hamda boshlang‘ich sinflarda chet tilini o‘qitish jarayonida kommunikativ yondashuvni qo‘llashning ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ yondashuv, kommunikativ kompetensiya, chet tili o‘qitish metodikasi, nutqiy faoliyat, ta’lim tamoyillari, boshlang‘ich ta’lim.*

Хабибуллаева Гулжахан Кенгесбаевна (Докторант Каракалпакского государственного университета)

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам, этапы его становления и развития, а также его основные характеристики. Анализируется методическая интерпретация понятия «подход», научные основы коммуникативного подхода и его роль в формировании коммуникативной компетенции. Особое внимание уделяется современным образовательным стандартам и значению использования коммуникативного подхода в обучении иностранному языку в начальной школе.*

Ключевые слова: *коммуникативный подход, коммуникативная компетенция, методика обучения иностранным языкам, речевая деятельность, образовательные принципы, начальное образование.*

Xabibullaeva Guljaxan Kengesbaevna (Doctoral researcher at Karakalpak State University)

SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE COMMUNICATIVE APPROACH IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Annotation. *This article examines the theoretical foundations of the communicative approach in foreign language teaching, its stages of formation and development, and its main characteristics. It also analyzes the methodological interpretation of the concept of “approach,” the scientific basis of the communicative approach, and its role in developing communicative competence. Special attention is given to modern educational standards and the importance of applying the communicative approach in teaching foreign languages at the primary school level.*

Keywords: *communicative approach, communicative competence, foreign language teaching methodology, speech activity, educational principles, primary education.*

Kirish. Metodik adabiyotlarda “yondashuv” tushunchasi ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan tamoyillar hamda strategiyalar tizimi sifatida izohlanadi. Ushbu tushuncha negizida o‘quv jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga yo‘nalish beruvchi muayyan konseptual g‘oya mujassamdir. Chet tillarini o‘qitish metodikasida esa yondashuv tilni o‘rgatish jarayonini tashkil etish va boshqarishning umumiy yo‘nalishi sifatida talqin qilinadi.